



## RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORXONALARDA XOM- ASHYO MATERILLARNING BUXGALTERIYA HISOBI

**Fattoyev Orzujon Xudoyqul ug'li**

*Toshkent davlat iqtisodiyot uiniversiteti*

*Samarqand filiali, assistant*

**+99893-347-58-67**

### **Annotatsiya:**

O'zbekistonning Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarda xom- ashyo materillarning buxgalteriya hisobi masalasi bugungi kunning eng muhim dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Chunki, iqtisodiyotning modernizatsiyalash sharoitida korxonalarining aylanma mablag'larida jumladan xom-ashyo va materiallardan tejab tergap foydalanishni taqazo etadi. Tannarxning pasayishi hamda ko'p hajmda Tovar moddiy boyliklarini yaratish korxonalar iqtisodiyotini samarali yuritishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** *buxgalteriya hisobi, debit, kredit, tovar, raqamli iqtisodiyot, material,*

### **Kirish**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy holati to'g'risidagi ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lishning asosiy quroli bu auditdir. Iqtisodiyotimizning rivojlanishini yuqori bosqichga ko'tarish sharoitida turli mulkchilikka asoslangan va faoliyat turlariga ixtisoslashgan ko'plab korxonalar barpo etilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida har bir faoliyat sohasida ijobiy natijalarga erishilmoqda. Mamlakatimizni 2017 — 2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha [Harakatlar strategiyasi](#) doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar darajasida tovar-moddiy zaxiralar yirik miqdordagi moliyaviy resurslar qo'yilmasini talab etuvchi obyektlar jumlasiga kiradi va shuning uchun ular xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish yoki marketing siyosatini belgilab beradigan muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, xo'jalik yurituvchi subyektlarning ko'pchiligi odatda ularga yetarli darajada e'tibor berishmaydi va doimo mavjud bo'lishi lozim bo'lgan zaxiralar bo'lgan ehtiyojga baho berishmaydi. Buning natijasida, ular tovar-moddiy zaxiralarga ko'zlangan darajadan ortiqcha mablag'lar sarflashlariga duch kelishadi.


2-sonli BHXSda tovar-moddiy zaxiralarga quyidagicha ta'rif berilgan:<sup>1</sup>

Tovar-moddiy zaxiralar – bu quyidagi aktivlardir:

- odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo'ljallangan;
- bunday sotuv uchun ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan;
- ishlab chiqarish jarayonida yoki xizmatlar ko'rsatilishida foydalanilishi ko'zlangan xomashyo va materiallar ko'rinishidagi aktivlar.

1-rasm. Materiallarni aktiv sifatida tan olish mezonlari

Materiallarning tashkilotga kelgusida aktiv bilan bog'liq iqtisodiy nafning kelib tushishiga



ishonch mavjudligini aniqlashda korxonada dastlabki tan olish paytida mavjud bo'lgan faktlarga asoslanib bo'lajak iqtisodiy nafning olinishi ehtimolligi darajasini baholashi lozim bo'ladi. Buning ma'nosi shundaki, korxonada olingan aktivga egalik qilish, undan foydalanish va boshqarishga bog'liq bo'lgan barcha bo'lajak daromadlar (ular odatda materiallarning chiqib ketishi, shuningdek sotilishidan tushadigan daromadlar shaklida namoyon bo'ladi) o'ziga tegishli bo'lishiga ishonch hosil qilishi lozim va mazkur obyektga egalik qilishga bog'liq barcha tavakkalchilikni (jumladan mulkning tasodifan ishdan chiqishi yoki buzilishi xavfi, shuningdek uni saqlash, qayta ishlash va hisobdan chiqarishga bog'liq ko'zda tutilgan xarajatlarni) o'z zimmasiga oladi. Iqtisodiy naf olish ehtimolligining mavjudligi korxonada aktiv bilan bog'liq bo'lgan, iqtisodiy moddiy boyliklarga ega bo'lishi va shunga muvofiq tegishli tavakkalchilikni o'z zimmasiga olishi xususida oydinlik kiritilishini taqozo etadi. Odatda iqtisodiy manfaatlar va tavakkalchiliklar korxonaga to'liq o'tgandagina bunday aniqlik paydo bo'ladi. Bungacha esa aktivni xarid qilish operatsiyasi deyarli talafotlarsiz (jarimalarsiz) bekor qilishini mumkin, shuning uchun aktiv tan olinmaydi.

Materiallarni buxgalteriya hisobida to'g'ri baholash muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. 4-son BHMSning 11-bandiga muvofiq, materiallarni baholash quyidagi ikki bahoning eng pasti bo'yicha – balans tuzilayotgan sanadagi haqiqiy tannarx bo'yicha (sotib olish narxi yoki ishlab chiqarish tannarxi) yoki bozor bahosi bo'yicha (sof sotish qiymati) bo'yicha amalga oshiriladi.

Materiallarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan va ularning tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

- materiallarning shartnoma qiymati;
- boj to'lovlari va yig'imlari;
- materiallarni sotib olishda qatnashgan ta'minotchi va vositachilarga to'lanadigan komission haqlar;
- materiallarni sertifikatlash va texnik sharoitlarga muvofiq sinovdan o'tkizish xarajatlari;
- transport-tayyorlov xarajatlari;

<sup>1</sup> Barry Elliot, Jamie Elliot. Financial accounting and reporting. (ISBN 978-1-292-08057-4) London, 2015. 17 thEdition. 101 p

➤ transportirovka qilish tavakkilchiliklarini sug'urtalash xarajatlari.

Ta'minotchilardan kirim qilingan materiallar to'g'risidagi operatsiyalarga jamiyatda quyidagicha pravodka berilgan

Debet	Kredit	Summa
1010	6010	4 052 500

Bundan tashqari materiallar quyidagi manbalardan kirim qilinishi mumkin va bu kabi operatsiyalarga quyidagicha pravodka berilgan.

a. Tasischilardan kirim qilingan materiallar

Debet	Kredit	Summa
1010	4610	4 120 000

b. Materiallar boshqa shaxslardan tekinga kelib tushgan

Debet	Kredit	Summa
1010	8530	1 125 000

Hozirgi kunda har qanday ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi korxonada bo'lmagan material zaxiralasiz, materiallarning taminotisiz korxonada faoliyat yuritish imkoniyati sustlashadi va hatto mumkin bo'lmay qoladi. Bugungi kunda zaxiralarni tan olish, ularning tannarxini aniqlash, baholash hamda moliyaviy hisobotda aks ettirishga doir xalqaro standartlardagi masalalarini va bu borada ilg'or xorijiy tajribalarni yoritib berish o'ta dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Bundan tashqari, xalqaro standartlarda keltirilgan atamalarni mazmun mohiyatini aniqlashtirish zarurati mavjud. Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ham xalqaro standartlarning qo'llanilishi e'tirof etilgan. Zaxiralar hisobga oid qoidalari 2-son MHXS "Zaxiralar" bilan tartibga solinadi. Bugungi kunda zaxiralarni tan olish, ularning tannarxini aniqlash, baholash hamda moliyaviy hisobotda aks ettirishga doir xalqaro standartlardagi masalalarini va bu borada ilg'or xorijiy tajribalarni yoritib berish o'ta dolzarb masalalar sirasiga kiradi. Bundan tashqari xalqaro standartlarda keltirilgan atamalarni mazmun mohiyatini aniqlashtirib olishimiz zarur. Xalqaro standartlarda 2-son MHXS "Zaxiralar" deb nomlanadi. 2-son MHXSning ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xalqaro standartlar va milliy standartlar o'rtasida umumiy qoidalarni belgilashda bir qancha farqlar mavjud<sup>2</sup>. Jumladan:

- xalqaro standartda zaxiralarning aktiv sifatida tan olinadigan tannarxini hamda tegishli tushumni tan olgunga qadar kelgusi davrlarga o'tkaziladigan summasini aniqlashga ustuvor ahamiyat qaratilgan bo'lsa, milliy standartda esa mulk huquqiga tegishli bo'lgan TMZlarning buxgalteriya hisobi uslubiyoti va moliyaviy hisobotda aks ettirilishini belgilash, deb ta'riflangan. Fikrimizcha, standartning maqsadi ko'proq ishlab chiqarilgan, sotilgan zaxiralar hamda hali sotilmagan qoldiqdagi zaxiralar tannarxini aniqlash tartibini belgilashga qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

milliy standartlarda sotishning sof qiymati va joriy qiymati tushunchalarining mantiqan mazmuniga aniqlik kiritish lozim. Bu tushunchalarni to'liq xalqaro standartdagi kontekstida qabul qilish maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz.

### Adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi".-T.:O'zbekiston, 2017.

---

<sup>2</sup>Tashnazarov S N., "Zaxiralar moliyaviy hisobotning metodologik masalalari" Finance.uz, 23.08.2016 yil

2. O‘zbekiston Respublikasi «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni. 2016 yil 13 aprel.
3. “2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni, 2018 yil 28-yanvar PF-60.
4. Tashnazarov S.N. Xalqaro hisob asoslari. Ma’ruza matnlari to‘plami. Samarqand-2008.
5. Urazov K.B. Buxgalteriya hisobi va audit. O‘quv qo‘llanma. T.: O‘qituvchi, 2004
6. Urazov K. B. «Iqtisodiyotni yerkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari» Toshkent. «Fan», 2005 yil.
7. <http://www.Mf.uz>( O‘z. Res Moliya Vazirligining maxsus sayti);
8. <http://www.Bir.uz>(Tadbirkorlar uchun ma’lumotlar bazasi);
9. <http://www.google.uz>
10. <http://www.google.ru>  
<http://www.buhgalteriya.ru>
11. <http://www.docaudit.ru>
12. <http://www.Lex.Uz>
13. <http://www.norma.uz>